Sharq mutafakkirlari tarbiyani inson kamolotining asosiy omili sifatida e'tirof etganlar. Xususan, Abu Nasr Forobiy: "Ta'lim so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o'rganishdir" ^[7], deya ta'kidlaydi. Ushbu fikr bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, o'quvchilarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirish faqat nazariy tushuntirish bilan emas, balki sog'lom pedagogik muhit, shaxsiy namuna va tizimli tarbiyaviy faoliyat orqali amalga oshirilishini anglatadi.

Deviant xulqning shakllanishiga oiladagi nosog'lom psixologik muhit, ota-onalar nazoratining sustligi, tengdoshlar ta'siri, internetdagi salbiy axborotlar, maktabdagi nizoli vaziyatlar hamda o'quvchining individual psixologik xususiyatlari sabab bo'lishi mumkin. Bunday holatlar o'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishining pasayishiga, intizom buzilishlariga, tajovuzkorlik, befarqlik yoki ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarga olib keladi. Shu sababli deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlash faqat intizomiy choralar bilan emas, balki ilmiy asoslangan pedagogik va psixologik yondashuvlar orqali tashkil etilishi zarur.

So'nggi yillarda O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash, ularni turli salbiy ta'sirlardan himoya qilish hamda ta'lim muassasalarida sog'lom psixologik muhitni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa deviant xulqning kelib chiqish omillarini chuqur o'rganish, uning oldini olishning samarali pedagogik va psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalash jarayonida uchraydigan pedagogik va psixologik muammolarni tahlil qilish, ularning kelib chiqish omillarini aniqlash hamda amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan samarali yechimlarni ilmiy asosda yoritishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Deviant xulqli o'quvchilar muammosi pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlarida turli jihatlardan o'rganilgan. Ilmiy manbalarda deviant xulq faqatgina intizomsizlik yoki tarbiyasizlik natijasi sifatida emas, balki shaxsning individual xususiyatlari, oilaviy munosabatlar, maktab muhiti, tengdoshlar ta'siri va jamiyatdagi ijtimoiy sharoitlarning o'zaro bog'liqligi asosida shakllanadigan murakkab hodisa sifatida talqin qilinadi.

Rossiyalik olim Yelena Zmanovskaya "Девиантология: психология отклоняющегося поведения: учебное пособие для студентов высших учебных заведений" nomli ilmiy asarida deviant xulqning mazmuni, asosiy turlari va yuzaga kelish mexanizmlarini tizimli ravishda yoritgan. Uning fikricha, shaxsning xulq-atvoridagi og'ishlarni faqat bitta sabab bilan izohlash mumkin emas. Bunda biologik, psixologik va ijtimoiy omillar birgalikda ta'sir ko'rsatadi. Muallif tajovuzkorlik, qaramlik, huquqbuzarlik, o'ziga zarar yetkazishga moyillik kabi holatlarni deviant xulqning turli shakllari sifatida tahlil qiladi. Zmanovskaya bunday o'quvchilar bilan ishlashda tashxis, profilaktika, psixologik maslahat va korreksion ishlarning o'zaro bog'liq holda olib borilishi zarurligini ta'kidlaydi. Olimaning yondashuvi deviant o'quvchini ayblashdan oldin uning xatti-harakatini yuzaga keltirgan ichki va tashqi sabablarni aniqlash muhimligini ko'rsatadi ^[1].

Foat Zinnurov o'zining "Педагогическая профилактика и коррекция девиантного поведения подростков в социокультурной среде" mavzusidagi tadqiqotida muammoni ijtimoiy-madaniy muhit bilan bog'liq holda o'rgangan. Tadqiqotchining fikricha, deviant xulqning oldini olish bir martalik suhbat yoki intizomiy chora bilan cheklanmasligi kerak. Buning uchun maktab, oila, mahalla, qo'shimcha ta'lim va yoshlar tashkilotlari faoliyatini birlashtiradigan yaxlit pedagogik tizim zarur. Zinnurov profilaktika jarayonida o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish, ularni ijtimoiy foydali faoliyatga jalb etish hamda kattalar bilan sog'lom munosabat o'rnatishni muhim pedagogik shart sifatida ko'rsatadi ^[2].

Aleksandr Podlipalin deviant xulqning norasmiy yoshlar submadaniyati va raqamli muhit ta'sirida shakllanishini tadqiq qilgan. Uning tadqiqotida o'smirning norasmiy guruhlariga qo'shilishi ba'zan oilada, maktabda yoki tengdoshlar orasida yetarli qo'llab-quvvatlash topa olmagan bilan bog'lanadi. Muallif profilaktika samarali bo'lishi uchun o'smirning emotsional barqarorligini rivojlantirish, xavfsiz raqamli muhit yaratish, ota-ona va bola o'rtasidagi muloqotni yaxshilash hamda o'quvchini ijtimoiy ahamiyatga ega madaniy faoliyatga jalb qilish zarurligini asoslaydi. Uning modelida o'quvchi, ota-ona, pedagog va o'smirlar ta'sir qiluvchi submadaniy muhit bilan birgalikda ishlash nazarda tutilgan ^[3].

Amerikalik tadqiqotchilar Ming-Te Wang va Thomas Dishion o'rta maktab yoshidagi o'quvchilarda maktab muhiti, deviant tengdoshlar bilan yaqinlashish va xulqiy muammolar o'rtasidagi bog'liqlikni uzoq muddatli tadqiqot asosida o'rganganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'quvchilarning maktabdagi ijtimoiy muhitni salbiy qabul qilishi kuchaygan sari xulqiy muammolar va deviant tengdoshlar bilan aloqalar ham ortib borgan. Aksincha, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijobiy munosabat, aniq va adolatli qoidalar hamda maktabga tegishlilik hissi o'quvchini salbiy guruhlar ta'siridan himoya qiladi. Bu natijalar deviant xulqni faqat oiladagi kamchiliklar bilan bog'lash noto'g'ri ekanini, maktabdagi psixologik muhit ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi ^[3].



Yanhong Ouyang va uning hammualliflari ota-onalarning farzand ta'limiga bo'lgan umidi, o'smirning o'z kelajagiga ishonchi, deviant tengdoshlar ta'siri va muammoli xulq o'rtasidagi munosabatni o'rgangan. Tadqiqotda ota-onaning farzandi kelajagiga befarq bo'lmasligi, uning ta'limiy maqsadlarini qo'llab-quvvatlashi va xatti-harakatini oqilona nazorat qilishi himoya omili sifatida namoyon bo'lgan. O'smirning ta'lim olishga bo'lgan shaxsiy intilishi kuchli bo'lsa, uning salbiy xulqli guruhlarga qo'shilish ehtimoli kamaygan. Aksincha, deviant tengdoshlar bilan yaqin munosabat muammoli va qoidabuzar xatti-harakatlarning ortishiga sabab bo'luvchi muhim xavf omili sifatida aniqlangan ^[6].

Shuang Liu va uning hamkasblari oiladagi ota-ona nizolari, o'quvchining maktabga bog'liqligi, impulsivlik va huquqbuzarlikka moyil xulq o'rtasidagi munosabatni tadqiq etganlar. Tadqiqotda 1407 nafar o'smir ishtirok etgan. Natijalar ota-onalar o'rtasidagi doimiy nizolar o'smirning maktabga bo'lgan ishonchi va tegishlilik hissini pasaytirishini ko'rsatgan. Maktab bilan hissiy aloqasi zaiflashgan o'quvchilarda qoidabuzarlik va tajovuzkor xatti-harakatlar ko'proq uchragan. Shu bilan birga, maktabga kuchli bog'liqlik, o'qituvchilarning qo'llab-quvvatlashi va sinfdagi ijobiy munosabatlar hatto impulsiv o'quvchilarni ham salbiy xatti-harakatlardan himoya qilishi mumkinligi aniqlangan ^[4].

Abeer AlMakadma boshchiligidagi tadqiqotchilar o'quvchining ota-ona va maktab bilan bog'liqligi, dars qoldirish, janjallashish hamda maktab intizomini buzish holatlarini tahlil qilganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, maktabga hissiy jihatdan bog'langan, o'qituvchilar bilan ishonchli munosabat o'rnatgan va ota-onasi tomonidan oqilona nazorat qilinadigan o'quvchilarda xavfli xatti-harakatlar kamroq uchragan. Dars qoldirish, mushtlashish va intizomiy jazoga sabab bo'ladigan holatlar esa maktab bilan aloqasi va ota-ona nazorati sust bo'lgan o'quvchilar orasida ko'proq kuzatilgan. Muallif maktab va oilani birlashtiruvchi tarbiyaviy dasturlarni profilaktikaning asosiy vositalaridan biri deb hisoblaydi ^[5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalash jarayonida yuzaga keladigan pedagogik-psixologik muammolar va ularning yechimlarini o'rganishga qaratilgan nazariy-tahliliy metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, pedagogik hamda psixologik tadqiqotlar o'rganilib, ularda ilgari surilgan ilmiy qarashlar tizimli ravishda tahlil qilindi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli asosiy metodlardan biri sifatida qo'llanildi. Ushbu usul orqali turli tadqiqotchilarning deviant xulqning kelib chiqish sabablari, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi oilaviy, pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillar haqidagi qarashlari o'zaro taqqoslandi. Xususan, oila muhiti, ota-ona nazorati, maktabdagi psixologik muhit, tengdoshlar ta'siri, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari hamda o'smirning individual xususiyatlariga doir ilmiy natijalarning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi.

Shuningdek, tizimli tahlil usuli yordamida deviant xulq alohida bir omilning natijasi sifatida emas, balki oila, maktab, tengdoshlar muhiti va o'quvchining individual psixologik xususiyatlari o'zaro ta'sirida shakllanadigan murakkab pedagogik-psixologik hodisa sifatida o'rganildi. Mazkur yondashuv deviant xulqning kelib chiqish sabablarini kompleks tarzda baholash hamda profilaktik va korreksion ishlarning asosiy yo'nalishlarini belgilash imkonini berdi.

Bundan tashqari, umumlashtirish va sintez usullaridan foydalanilib, o'rganilgan ilmiy manbalarda keltirilgan nazariy qarashlar va tadqiqot natijalari bir tizimga keltirildi. Natijada deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashda individual yondashuv, sog'lom psixologik muhit yaratish, pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini kuchaytirish, o'quvchilarni ijtimoiy foydali faoliyatga jalb etish hamda profilaktik ishlarni tizimli tashkil etish muhim pedagogik-psixologik yo'nalishlar sifatida ajratib olindi.

Qo'llanilgan metodlar tadqiqot mavzusiga oid ilmiy qarashlarni o'zaro taqqoslash, mavjud muammolarning asosiy sabablarini tizimlashtirish va deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashning samarali pedagogik-psixologik yechimlarini umumlashtirish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Deviant xulqli o'quvchilar bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bunday xatti-harakatlar ko'pincha birdaniga yuzaga kelmaydi. Ular ma'lum vaqt davomida shakllanib, oila, maktab, tengdoshlar muhiti va o'quvchining ichki kechinmalari ta'sirida kuchayib boradi. Shu sababli o'quvchining intizomga rioya qilmasligi, dars qoldirishi, tajovuzkorligi yoki kattalar talabiga qarshilik ko'rsatishini faqat tarbiyasizlik deb baholash to'g'ri emas. Har bir salbiy xatti-harakat ortida ma'lum bir sabab, ehtiyoj yoki hal qilinmagan psixologik muammo bo'lishi mumkin.

Avvalo, oilaviy muhit o'quvchining xulq-atvori shakllanishida katta ahamiyatga ega. Oilada doimiy nizolarning mavjudligi, bolaga nisbatan befarqlik, haddan tashqari qattiqqo'llik yoki nazoratning umuman yo'qligi uning



ruhiy holatiga salbiy ta'sir qiladi. Ba'zan ota-onalar farzandining moddiy ehtiyojlarini ta'minlashni tarbiyaning asosiy sharti deb hisoblaydilar. Biroq bola uchun e'tibor, samimiy suhbat, ishonch va ruhiy qo'llab-quvvatlash ham muhimdir. Ota-onasi bilan erkin muloqot qila olmaydigan o'quvchi o'z muammolarini tengdoshlari yoki internetdagi turli guruhlar orqali hal qilishga urinishi mumkin. Bu esa uni salbiy ta'sirlarga yanada yaqinlash-tiradi.

Maktabdagi munosabatlar ham deviant xulqning kuchayishi yoki kamayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi tomonidan o'quvchini doimiy tanqid qilish, uni boshqalar oldida kamsitish yoki faqat kamchiliklariga e'tibor qaratish unda norozilik va qarshilik hissini paydo qiladi. Ayrim hollarda o'quvchi o'zini himoya qilish maqsadida qo'pol yoki tajovuzkor munosabatni tanlaydi. Aslida esa bunday holat uning ichki himoya reaksi-yasi bo'lishi mumkin. Shuning uchun pedagog o'quvchining xulqini baholashdan oldin uning ruhiy holatini va muammoning kelib chiqish sabablarini tushunishga harakat qilishi zarur.

Deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashda jazolash usuli ko'pincha kutilgan natijani bermaydi. Haddan tashqari qattiq jazo o'quvchida qo'rquv, yolg'on gapirish, yashirin qarshilik yoki o'ch olish istagini kuchaytirishi mumkin. Jazodan keyin bola ma'lum vaqt o'zini tartibli tutishi mumkin, biroq muammoning asl sababi bartaraf etilmasa, salbiy xatti-harakat yana takrorlanadi. Shu bois tarbiyaviy jarayonda jazo o'rniga tushuntirish, mas'uliyatni his qildirish, xatti-harakat oqibatlarini anglatish va ijobiy faoliyatga yo'naltirish samaraliroq hisoblanadi.

Tengdoshlar ta'siri ham o'smirlik davrida alohida kuchga ega bo'ladi. O'quvchi o'zini guruhning bir qismi sifatida his qilishni istaydi va shu sababli do'stlarining xatti-harakatlarini takrorlashi mumkin. Agar u ijobiy maqsadga ega jamoaga qo'shilsa, unda mas'uliyat, hamkorlik va o'ziga ishonch shakllanadi. Aksincha, salbiy xulqqa moyil guruh bilan yaqinlashish dars qoldirish, janjallashish, yolg'on gapirish yoki huquqbuzarlik kabi holatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun maktabda o'quvchilarni sport, san'at, kitobxonlik, texnika, ijodkorlik va jamoatchilik ishlariga jalb qilish profilaktik jihatdan muhimdir.

Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta'sirini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Nazoratsiz axborot oqimi o'quvchining dunyoqarashi va xulqiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi videolar, zararli guruhlar, kiberbulling va turli xavfli chaqiriqlar o'smirning ruhiy holatini izdan chiqaradi. Bunday vaziyatda internetdan foydalanishni butunlay taqiqlash to'g'ri yechim emas. Aksincha, o'quvchilarda axborotni tanqidiy baholash, zararli va foydali kontentni farqlash hamda raqamli xavfsizlik qoidalariga amal qilish ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Deviant xulqni bartaraf etishda maktab psixologining faoliyati ham katta ahamiyatga ega. Psixolog o'quvchini faqat muammo yuzaga kelganda emas, balki muntazam ravishda kuzatib borishi kerak. Individual suhbat, psixologik diagnostika, trening va korreksion mashg'ulotlar yordamida o'quvchining tajovuzkorligi, xavotiri, o'ziga ishonchsizligi yoki muloqotdagi qiyinchiliklarini aniqlash mumkin. Bunda o'quvchining shaxsiy ma'lumotlari va ichki kechinmalariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish muhimdir. Agar bola psixologga ishonmasa, u o'z muammosini ochiq aytmaydi va yordam jarayoni samarasiz bo'lib qoladi.

Pedagog, psixolog va ota-onaning birgalikdagi hamkorligi muammoni hal etishning eng muhim shartidir. Amaliyotda ba'zan ota-ona barcha mas'uliyatni maktab zimmasiga yuklaydi, maktab esa muammoni oiladagi tarbiya bilan izohlaydi. Bunday yondashuv natijada o'quvchining holati yanada murakkablashadi. Tomonlar bir-birini ayblash o'rniga umumiy maqsad asosida harakat qilishi, o'quvchi uchun yagona va tushunarli talablarni belgilashi kerak. Oilada bir xil, maktabda esa boshqa xil talab qo'yilishi o'quvchida noaniqlik va ikkilanishni yuzaga keltiradi.

Deviant xulqli o'quvchini faqat kamchiliklari orqali baholash ham to'g'ri emas. Har bir bolada ma'lum bir qobiliyat, qiziqish yoki ijobiy fazilat mavjud. Pedagog shu jihatni topib, uni rivojlantira olsa, o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi. Masalan, darsda faolligi past bo'lgan o'quvchi sport, musiqa, rasm chizish, texnika yoki tashkilotchilikda yaxshi natija ko'rsatishi mumkin. Uning yutug'ini e'tirof etish va kichik muvaffaqiyatlarini rag'batlantirish xulqdagi ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. Shuningdek, profilaktik ishlar faqat muammoli o'quvchilar bilan chegaralanmasligi lozim. Sinfdagi sog'lom psixologik muhit, o'zaro hurmat, do'stona muloqot va adolatli munosabat barcha o'quvchilar uchun zarurdir. Maktabda kamsitish, masxara qilish va zo'ravonlikka yo'l qo'yilmasligi kerak. Sinf rahbari o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni kuzatib borishi, nizolarni erta aniqlashi va ularni tinch yo'l bilan hal qilishga o'rgatishi muhimdir.

Umuman olganda, deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalashda yagona va barcha bolalarga bir xil ta'sir qiladigan usul mavjud emas. Har bir o'quvchining oilaviy sharoiti, xarakteri, yoshi, qiziqishi va muammosi alohida hisobga olinishi kerak. Eng samarali yondashuv o'quvchini jazolash emas, balki uning holatini tushunish, unga ishonch bildirish, ijobiy muhit yaratish va jamiyatga moslashishiga yordam berishdan iborat. Ana shunday insonparvar va tizimli yondashuvgina o'quvchi xulqida barqaror ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalash masalasi murakkab pedagogik va psixologik yondashuvni talab qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quvchining me'yoriy xulqdan chekinishi faqat uning shaxsiy kamchiligi yoki tarbiyasizligi bilan izohlanmaydi. Bunday holatlarning shakllanishiga oiladagi nosog'lom muhit, ota-ona nazoratining sustligi, maktabdagi nizolar, tengdoshlarning salbiy ta'siri, internetdagi zararli axborotlar, ruhiy zo'riqish, o'ziga ishonchsizlik va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar sabab bo'lishi mumkin.

Shu bois deviant xulqli o'quvchini faqat jazolash, tanbeh berish yoki undan yuqori talab qilish orqali muammoni hal etib bo'lmaydi. Bunday choralar ayrim hollarda qisqa muddatli natija berishi mumkin, biroq xulqdagi og'ishlarning asosiy sababi bartaraf etilmasa, muammo yana takrorlanadi. Samarali tarbiya o'quvchining ichki kechinmalarini tushunish, unga ishonch bildirish, ijobiy sifatlarini qo'llab-quvvatlash va jamiyatga moslashishiga yordam berishga asoslanishi kerak.

Deviant xulqning oldini olishda oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi muhim o'rin tutadi. Pedagog, psixolog va ota-ona o'quvchi bilan ishlashda yagona maqsad va yondashuv asosida harakat qilsa, tarbiyaviy ishlarning samaradorligi ortadi. Ayniqsa, maktabda sog'lom psixologik muhit yaratish, o'quvchini kamsitmaslik, uning fikrini tinglash va qobiliyatlarini namoyon etish uchun imkoniyat berish xulqdagi ijobiy o'zgarishlarga olib keladi.

Shuningdek, har bir o'quvchiga individual yondashish zarur. Chunki bir o'quvchiga foyda bergan usul boshqa o'quvchida kutilgan natijani bermasligi mumkin. O'quvchining yoshi, xarakteri, oilaviy sharoiti, qiziqishlari va psixologik holati hisobga olingan holda tarbiyaviy reja ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Shu asosda deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashda insonparvarlik, sabr-toqat, izchillik va hamkorlik asosiy tamoyillar bo'lishi lozim.

Deviant xulqning dastlabki belgilarini erta aniqlash uchun sinf rahbari, fan o'qituvchisi va maktab psixologi o'quvchilarning darsdagi faolligi, tengdoshlari bilan munosabati, kayfiyati va xatti-harakatidagi o'zgarishlarni muntazam kuzatib borishi zarur.

Har bir muammoli o'quvchi uchun individual pedagogik-psixologik tavsifnoma va korreksion ish rejasi ishlab chiqilishi kerak. Ushbu rejada o'quvchining muammolari bilan bir qatorda uning kuchli tomonlari, qiziqishlari va qobiliyatlari ham hisobga olinishi lozim.

Ota-onalar bilan muntazam suhbatlar, maslahatlar va tarbiyaviy treninglar tashkil etish muhimdir. Bunda ota-onani ayblash emas, balki farzand tarbiyasidagi muammoni birgalikda hal etishga yo'naltirish kerak.

Maktabda o'quvchilarni kamsitish, masxara qilish, zo'ravonlik va kiberbulling holatlarining oldini olishga qaratilgan aniq qoidalar va profilaktik tadbirlar yo'lga qo'yilishi zarur.

Deviant xulqqa moyil o'quvchilarni sport, san'at, kitobxonlik, kasb-hunar, texnik ijodkorlik va jamoatchilik ishlariga jalb etish lozim. Mazmunli faoliyat o'quvchining bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etadi va unda o'ziga ishonchni oshiradi.

Pedagoglar o'quvchini boshqalar oldida haqoratlash, tamg'alash yoki faqat kamchiliklari orqali baholashdan voz kechishi kerak. Kichik yutuqlarni ham e'tirof etish va rag'batlantirish ijobiy xulqning mustahkamlanishiga yordam beradi.

Maktab psixologi tomonidan individual suhbatlar, psixologik treninglar, nizolarni hal qilish mashg'ulotlari, tajovuzkorlikni kamaytirish va hissiyotlarni boshqarishga qaratilgan korreksion dasturlar muntazam tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

O'quvchilarda internetdan xavfsiz foydalanish, zararli axborotni ajratish, kiberbullingdan himoyalanih va raqamli madaniyat ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha maxsus mashg'ulotlar o'tkazilishi kerak.

Sinfda o'zaro hurmat, ishonch, hamjihatlik va adolatga asoslangan psixologik muhit yaratish lozim. Bunday muhit o'quvchining maktabga bog'liqligini kuchaytirib, deviant xulqning oldini olishga xizmat qiladi.

Deviant xulq bilan bog'liq murakkab holatlarda maktab, ota-ona, mahalla, voyaga yetmaganlar bilan ishlovchi mutaxassislar va zarur hollarda tibbiy-psixologik xizmatlar o'rtasida tizimli hamkorlik yo'lga qo'yilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Змановская Е. В. Девиантология: психология отклоняющегося поведения: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – 3-е изд., испр. и доп. – Москва: Академия, 2004. – 288 с.
2. Зиннуров Ф. К. Педагогическая профилактика и коррекция девиантного поведения подростков в социокультурной среде: автореф. дис. ... д-ра пед. наук: 13.00.01. – Казань, 2012.
3. Wang M. T., Dishion T. J. The trajectories of adolescents' perceptions of school climate, deviant peer affiliation, and behavioral problems during the middle school years // Journal of Research on Adolescence. – 2012. – Vol. 22, No. 1. – P. 40–53. – DOI: 10.1111/j.1532-7795.2011.00763.x.



4. Liu S., Yu C., Conner B. T., Wang S., Lai W., Zhang W. Influence of inter-parental conflict on adolescent delinquency via school connectedness: Is impulsivity a vulnerability or plasticity factor? // *Journal of Adolescence*. – 2016. – Vol. 52. – P. 12–21. – DOI: 10.1016/j.adolescence.2016.07.001.
5. AlMakadma A. S., Ramisetty-Mikler S. Student, school, parent connectedness, and school risk behaviors of adolescents in Saudi Arabia // *International Journal of Pediatrics and Adolescent Medicine*. – 2015. – Vol. 2, No. 3–4. – P. 128–135. – DOI: 10.1016/j.ijpam.2015.09.003.
6. Ouyang Y., Wang K., Zhang T., Peng L., Song G., Luo J. The influence of parental educational expectations on adolescent problem behaviors: The role of adolescent self-educational expectations and deviant peer affiliations // *International Journal of Environmental Research and Public Health*. – 2023. – Vol. 20, No. 3. – Article 2005. – DOI: 10.3390/ijerph20032005.
7. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b. – B. 184.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.